



Maktab o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati

Madaliyev Asqarali Yigitaliyevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasining erkin tadqiqotchisi

Email: madaliyev70@mail.ru

Tel: +998903476802

Annotatsiya. Dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarning o'rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarsi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz haqida yoshlarni boxabar qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek milliy ta'lim tizimida bugungi zamon talablaridan kelib chiqib, ilg'or zamonaviy tajribalarni tatbiq etish bilan birga ming yillar davomida shkillangan sharqona qadriyatlar, xususan, xalq og'zaki ijodini o'rgatish ham ustuvorlik kasb etadi. Maqola bugungi kundagi globallashuv va internet asri davrida yoshlarni turli buzg'unchi manbalardan himiya qilishda sharqona qadriyatlar, xususan, xalq og'zaki ijodini kengroq o'rgatish dolzarb masala ekanligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: yoshlar, globallashuv, ma'naviyat, sharqona milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, yuksak axloq, o'lmas madaniy meroslar, xalq og'zaki ijodi.

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

37 mln.dan ortiq nifuzga ega O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlardan iborat. Ochiq ma'lumotlarga ko'ra, 18 milliondan ziyod o'g'il-qizlar bugungi kunda O'zbekistonni kuchli to'liqini bo'lib jamiyatda faol ishtirik etmoqda. Ularning kelajagini to'g'ri ta'minlash esa O'zbekiston siyosatida ustivorlik kasb etadi.

O'tgan qisqa davrda ushbu yo'nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. 2016 yil 14 sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020 yil 30 iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident farmoni, eng muhimi, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan “Yoshlar huquqlari to'g'risida”gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani kabi yondashuvlar shular jumlasidandir.

Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhirlab qo'yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kehgaytirish, amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermogda.

Shuningdek, bugungi kunda yoshlarni chalg'itayotgan xavflar borki, ylardan biri globallashuv jarayonida hayotimizga kirib kelgan internetdir. Biz XXI asrda- axborot-kommunikasiya texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlanayotgan, yagona axborot makoni allaqachon shakllangan va “axborot portlashi” takror-takror yuz berib turgan, uning bosimi insonga o'ta kuchaygan, inson reak va virtual voqelik o'rtasida chegaralarni tobora farqlay olmay qolayotgan sharoitda yashamoqdamiz.



Bugungi kunda ushbu “o’rgamchik to’ri” turli mazmundagi axborotlar bilan yoshlarni yo’ldan og’dirishga qarshi himoya qila oladigan kafolat yo’q. Bugungi kunda yoshlarning ongi va qalbini egallagan internet xurujidan va buzg’unchi g’oyalardan doimo himoya qilib borishimiz shart, chunki yoshlarimiz-kelajagimiz.

Globalashuv jarayonida internet orqali yoshlar ongiga ta’sir ko’rsatuvchi tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba’zan oshkor ba’zan o’ta maxfiy, ichki, yashirin bo’ladi. Bu maqsadlarni bilish va o’z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma’naviyatli, g’oyaviy ongli, ma’naviy barkamol bo’lishlari shart. Faqat shunday yoshlarga bunday ta’sirlardan himoyalaniishga qodir bo’ladi.

Zero, O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O’zbekiston tomonidan “Yoshlar huquqlari to’g’risida”gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani jaholatga qarshi-ma’rifat tamoyili asosida olib borayotgan keng ko’lamli ishlarimizning uzviy bir qismi bo’lib, u yer yuzidagi ikki milliarddan ziyod yoshlarning haq-huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kundagi mavjud bo’lgan mazkur mavkuraviy va ma’naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o’z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o’z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo’lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o’rni beqiyosdir.

O’zbekiston – bebaho qadriyatlari bilan azaldan olamni o’ziga maftun etib kelgan munavvar diyor.

Milliy qadriyatlar insonni o’z-o’zini anglashi, milliy g’ururga ega bo’lishi, o’z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga, intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o’tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o’z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo’lib yetishi uchun xizmat qiladi.

Qadriyat so’zi alohida e’tibor va e’zozga ega bo’lgan odat ma’nosini anglatar ekan, u bir xalq ichida emas, barcha xalqlar tomonidan e’tirof etilsa, oliy maqom kasb etadi. O’zbekiston zaminida yashovchi xalqlarga mansub kattayu kichikka birdek salom berish, keksalarni e’zozlash, qo’shnini hurmat qilish, qarindoshga oqibat, bolaparvarlik, mehmonni ikrom qilish, dini va millatidan qat’iy nazar Bani bashar avlodiga uning, avallo, inson ekanligi e’tiboridan bag’rikeng munosabatda bo’lish kabi fazilatlar asrlar davomida jahon tamadduni sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan.

Yoshlar faolligini ta’minlashning yana har bir muhim yo’nalishi ular ongida milliy urf-odatlar va an’analarni shakillantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo’lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko’rsatuvchi izoh, ya’ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma’naviy barkamol yoshlarni o’ziga xos bo’lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosliqlik, ulug’vorlik, sabrlilik kabi ma’naviy fazilatlar, mehmondo’sstlik, bag’rikenglik, bolajonlilik, oqko’ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an’analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o’ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar davomida shakillangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo’shib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g’oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minlashga ko’maklashadi. Qadriyatlarining barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi ucun xizmat qiladigan vositalar bo’lib hisoblanadi.

Birgina milliy qadriyatlarining ilk namunalari bo’lgan xalq og’zaki ijodiga e’tibor qatadigan bo’lsak, unung inson taqdiridagi, ahamiyati shundaki, doimo o’zining hayotiyliigi, ta’sirchanligi mehr-muruvvatliliigi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qilgan. Xalqimizning urf-odatlarini, an’analari haqidagi bilim, malaka va boy tajribalarini kelgusi



avlodga o'tishda ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma'naviy jihatdan hal etishda o'z ta'sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlarini, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shunday ekan, bugungi axborot xuruji asrida, "axborot portlashi" takror-takror yuz berib turgan, uning bosimi insonga o'ta kuchaygan, real va virtual voqelik o'rtasida chegalalar tobora chigallashib ketgan sharoitda yoshlar ongu shuurini xalq og'zaki ijodining ana shu yuqorida keltirilgani kabi namunalari bilan "sug'orsak", jaholatga qarshi ma'naviyat bilan javob qaytara olishimiz shubhasiz.

Agar yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Aksincha, agar hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va taffakur bilan yondoshsak, yoshlar tarbiyasida ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham-bularning barchasi, avvalambor yosh avlod, o'nib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday inson bo'lib yetishiga bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo'lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish biz ota-onalarning burchimizdir.

Zero, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida qayd etganidek, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat".

Adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yoshlari_kuni
2. <https://president.uz/uz/lists/view/6451>
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentabr. (<https://lex.uz/ru/docs/3026246>)
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 30 iyun (<https://lex.uz/ru/docs/4880189>)
5. <https://strategy.uz/index.php?news=615>